



The relevance of students' independent learning skills in higher education institutions

Anvar NURMURATOV¹

Samarkand State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received September 2024

Received in revised form

10 October 2024

Accepted 25 October 2024

Available online

15 November 2024

Keywords:

educational electronic processes, educational system, higher education, distance education, independent education, mechanisms of independent education, libraries, software products.

ABSTRACT

The modern education system demands that students become active, independent, and critical thinkers. Professors not only deliver knowledge but also act as facilitators and managers of the educational process, guiding students in their independent learning journeys. Independent educational mobility is essential for meeting these demands. This article discusses the requirements of modern educational resources in fostering students' development through independent learning. It examines the role of independent learning in the educational process, the critical analysis of data by students during independent study, and the methods for verifying the reliability of their findings.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss6-pp158-164>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarining dolzarbligi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

ta'lim jarayonlari, ta'lim tizimi, oliy ta'lim, masofaviy ta'lim, mustaqil ta'lim, mustaqil ta'lim olish mexanizmlarini, elektron kutubxonalar, dasturiy vositalar.

Hozirgi zamon ta'lim tizimi talabalardan faol, mustaqil va tanqidiy fikrlovchi shaxslar bo'lishini talab qiladi. Professor-o'qituvchilar faqat bilim beruvchi emas, balki ta'lim jarayonini boshqaruvchi va talabalarni mustaqil o'rganishga yo'naltiruvchi rolini o'ynaydi. Mustaqil ta'lim olish ko'nikmalari bu talablarni qondirish uchun zarurdir. Maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy ta'lim tizimining talablari, imkoniyatlari shuningdek, mustaqil o'rganish jarayonida talabalar turli manbalardan ma'lumotlarni tanqidiy tahlil qilish, ularning ishonchliligini baholash masalalari tahlil qilingan.

¹ PhD, Samarkand State Institute of Foreign Languages.

Актуальность навыков самостоятельного обучения студентов в высших учебных заведениях

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

образовательные процессы, система образования, высшее образование, дистанционное образование, самообразование, механизмы самостоятельного обучения, электронные библиотеки, программные средства.

Современная система образования предъявляет к учащимся высокие требования, побуждая их быть активными, независимыми и критически мыслящими. Преподаватели и профессеры выступают не только как носители знаний, но и как менеджеры образовательного процесса, направляющие студентов к самостоятельному обучению. Развитие навыков самостоятельной работы становится ключевым условием для успешного соответствия этим требованиям. В данной статье рассматриваются особенности и возможности современной системы образования, способствующие развитию у студентов высших учебных заведений навыков самостоятельного обучения, включая критический анализ информации из различных источников и оценку их достоверности.

KIRISH

Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans uchun tamal toshi qo'yilayotgan bir paytda uning asosi, harakatlantiruvchi kuchi hisoblanmish yoshlarimizni har tomonlama yetuk, chet tillarda so'zlashish imkoniga ega, o'z sohasi bo'yicha xorijiy hamkasblari bilan erkin tajriba almasha oladigan tarzda kamol toptirish davlatimiz siyosatining eng asosiy bo'g'inlaridan biri bo'lib turibdi. Ilm-fan rivojlanishida, u bilan hamnafas va hamqadam bo'lishni esa bugungi davrning o'zi taqozo etmoqda. U borada "Ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, "blended learning", "flipped classroom" texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish" muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan kelib chiqib, innovatsion metodlarni ta'lim tizimida qo'llagan holda, mustaqil ta'lim olishning ko'lamini oshirish, barchaning bu imkoniyatdan foydalana olishi uchun masofaviy ta'limni rivojlantirish pedagoglar va AT mutaxassislarimiz oldidagi asosiy vazifalardan biri bo'lmoqda.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish dolzarb masalalardan sanalib, talabalarda qanday qilib mustaqil ta'lim olish ko'nikmasini shakllantirish professor-o'qituvchilarni qiynab kelgan muammolardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-sonli qarorining: 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida NIZOM"ning 4-bob, 15-bandida "Kredit-modul tizimida 1 kredit o'rtacha 25–30 akademik soatlik o'quv yuklamasiga teng. Ya'ni talaba muayyan fandan tegishli kreditlarni to'plashi uchun ma'lum miqdordagi o'quv yuklamasini o'zlashtirishi zarur. O'quv yuklamasi bakalavriatda – 40–50% auditoriya soati, 50–60% mustaqil ish soatiga, magistraturada – 30%–40% auditoriya soati, 60–70% mustaqil ish soatiga (malakaviy amaliyot va bitiruv malakaviy ishlari bundan mustasno) bo'linadi. Kreditning soatlardagi miqdori va o'quv yuklamasi miqdori oliy ta'lim muassasasi kengashi tomonidan belgilanadi va oliy ta'lim muassasasi veb-sahifasida shaffof tarzda joylashtiriladi" deb belgilangan.

Bu borada rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim tizimiga sifat va samaradorlikka erishishda talabalarning mustaqil ta'lim olishlarida metodologik asos vazifasini bajarimoqda. Shuningdek, ta'lim sohasidagi erishilgan natijalarning amaliyotga joriy qilinishi mustaqil ta'lim olish mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini taqozo etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim tizimini rivojlantirish, sifat bosqichiga erishda mustaqil ta'limni tashkil etish va uning texnologiyalarini ta'lim tizimiga joriy etishga doir qator ishlar amalga oshirilib, oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning zamonaviy komponentlarini to'liq qamrab oladigan tizimli tadqiqot olib borish bugungi kunning dolzarb vazifasiga aylanmoqda.

Bu sohada mamlakatimizda A. Abduqodirov, J. Jalolov, A. Pardayev, M. Fayziyeva, D. Sultanova, Sh. Safarov, I. Tuxtasinov, M. Lutfullayev, Sh. Ashurov, D. Tagayeva, P. Omanov, S. Chimpola'tova, D. O'rinboyeva, M. Hakimov, F. Katipbergenova, D. Kurbanbayev, A. Kayipbergenov, Sh. Sultonova va boshqa pedagog olimlar va tadqiqotchilar o'z ilmiy izlanishlari doirasida xorijiy tillarning masofaviy tarzda o'qitishning afzalliklari, innovatsion texnologiyalarning mustaqil ta'limni bajarishdagi samaradorligi xususida ilmiy qarashlarni bayon qilishgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni muvaffaqiyatli tashkil etish, talabalarning o'z-o'zini rivojlantirish va mustaqil bilim olish qobiliyatlarini oshirish juda muhimdir. Talabalar orasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish orqali kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, sohaga oid muammoli vaziyatlarni chuqur tahlil qilishni osonlashtiradi. Buning uchun, dasturiy mahsulotlar, internet orqali foydalanish mumkin bo'lgan vositalar, elektron qo'llanmalar va test tizimlari kabi zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalangan holda, o'quv jarayonlarini yanada takomillashtirish zarur. Elektron kutubxonalar, o'quv-me'yoriy hujjatlarni avtomatlashtirish mumkin bo'lgan ta'lim muhitlari, shuningdek, kompyuter texnologiyalari asosida o'qitishga mo'ljallangan dasturiy vositalar talabalarga o'z bilimlarini mustaqil ravishda rivojlantirish imkoniyatini beradi. Talabalar o'quv jarayonida samarali ishtirok etishlari uchun multimediali elektron darsliklar, elektron o'rgatuvchi kurslar va masofaviy ta'lim portallari orqali turli resurslarga kirish imkoniyatiga ega bo'lishlari zarur. Bunday yangiliklar ta'lim tizimida ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etish, talabalarning mustaqil ta'lim olish mexanizmlarini rivojlantirish va zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarni samarali qo'llashga yordam beradi. Umuman olganda, bunday yagona axborot muhitini yaratish jarayoni ta'limning sifatini oshirish, talabalarning kasbiy bilimlarini mustahkamlash va uning samarali o'zaro ta'sirini ta'minlash uchun zarurdir. Bu esa, oxir-oqibatda, kelajakda muvaffaqiyatli mutaxassislar tayyorlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Talabalarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmasini oshirish, ijodiy tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, mustaqil ta'lim olish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan elektron o'quv adabiyotlar yaratish va ulardan dars jarayonida foydalanish ta'lim tizimida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada tadqiqotchi-olim J.G. Obidov tadqiqotlarida talabalarning mustaqil ta'limidan asosiy maqsadlari sifatida quyidagicha bayon qiladi:

▪ “talaba yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o’zlashtirish ko’nikmasiga ega bo’lishi;

▪ kerakli ma’lumotlarni izlab topish, o’rganishning qulay usullari va vositalarini aniqlay olish

▪ ko’nikmasiga ega bo’lishi;

▪ axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanishi;

▪ o’quv va ilmiy adabiyotlar, me’yoriy hujjatlar bilan ishlashi;

▪ elektron o’quv adabiyotlar va ma’lumotlar banki bilan ishlashi;

▪ internet tarmog’idan samarali foydalanishi;

▪ ma’lumotlar bazasini tahlil etishi;

▪ berilgan topshiriqlarning ratsional yechimini belgilashi;

▪ topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashishi;

▪ o’quv va ilmiy adabiyotlaridan mustaqil holda ilmiy axborotlarni ola bilishi;

▪ amaliy mashg’ulotlarda mustaqil bajarish uchun berilgan amaliy topshiriq (mustaqil ish)larni bajarishi va mustaqil ishlarni mas’ul o’qituvchi va guruh talabalari o’rtasida himoya qila bilishi kerak va h.k.”.

Oliy ta’lim muassasasida mustaqil ta’lim topshiriqlari talabalar uchun o’z bilim va ko’nikmalarini mustahkamlash, o’rganish jarayonini chuqurlashtirish hamda o’z-o’zini tarbiyalash maqsadida beriladi.

Talabalarining mustaqil ta’lim ko’nikmalarini shakllantirishda bir qancha muhim jihatlar mavjud:

O’z-o’zini boshqarish. Mustaqil ta’lim ko’nikmalari talabalarni o’z vaqtlarini samarali boshqarish va o’z maqsadlariga erishish uchun zarur bo’lgan o’z tashkiliy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Izlanish faoliyati. Talabalar mustaqil ravishda izlanishlar olib borish orqali yangi bilimlar va ma’lumotlarni o’zlashtiradilar. Bu jarayon imkoniyatlarni kengaytiradi va fikrlash qobiliyatini oshiradi.

Muammolarni hal qilish qobiliyati. Mustaqil ta’lim jarayonida talabalar turli muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish strategiyalarini ishlab chiqish ko’nikmalarini rivojlantiradilar.

Tanqidiy fikrlash. Mustaqil ta’limda talabalar o’z bilimlariga tanqidiy yondashish va o’z fikrlarini ifodalash orqali idrok qilish darajasini oshiradilar.

O’z o’rnini belgilash. Talabalar o’z qobiliyatlarini va qanday qilib muvaffaqiyatga erishishlari kerakligini anglab yetishlari muhimdir. Bu ularning kelajakda kasbiy faoliyatlarini rejalashtirishda yordam beradi.

Resurslardan foydalanish. Mustaqil ta’lim ko’nikmalari talabalarni mavjud bilim manbalaridan samarali foydalanishga o’rgatadi. Talabalar mustaqil ravishda kutubxonalardan, internetdan va boshqa resurslardan foydalanishni o’rganadilar.

O’z-o’zini baholash. Mustaqil ta’lim jarayonida talabalar o’z faoliyatlarini baholash va natijalardan xulosa chiqarish ko’nikmalarini rivojlantiradilar, bu ularning o’sishida muhim ahamiyatga ega.

Shu sababli, oliy ta’lim muassasalari mustaqil ta’lim ko’nikmalarini oshirishga qaratilgan metodologiyalarni ishlab chiqish va talabalar uchun zarur sharoitlarni taqdim etishi lozim. Topshiriqlarni bajarishda talabalar o’z vaqtlarini to’g’ri rejalashtirishlari, resurslarni samarali foydalanishlari va fikrlarini aniq ifodalay olishlari muhimdir. Bunda o’qituvchilar talabalar uchun aniq ko’rsatmalar berishi va ularning rivojlanishiga yo’l-yo’riq ko’rsatishi lozim.

Shu tarzda, yuqoridagi chora-tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mustaqil ta'lim olish qobiliyatlari va ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari yanada kengayadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlar hamda bir qator huquqiy meyyoriy hujjatlarda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini Davlat ta'lim standartlari hamda malaka talablari asosida tashkil etish hamda mutaxassislar tayyorlash belgilab qo'yilgan. Oliy ta'lim muassasalari talabalarining mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirishda ularning o'z oldiga qo'ygan maqsadi, bunga ko'ra reja tuzganligi hamda uni bajarish jarayonini tizimli tashkil etganligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Albatta, talabalarning axborot texnologiyalari bo'yicha bilimga ega ekanligi va ulardan foydalanaolishi ko'zlangan maqsadga erishish davrini belgilab beradi. Bugungi kunda mamlakatimizda axborot texnologiyalari masalalari bo'yicha ichki me'yoriy-huquqiy baza takomillashtirib borilmoqda. Mazkur yo'nalishda AKT sohasiga oid milliy qonunchiligimiz inventarizatsiya qilinib, Avstriya, AQSH, Germaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Finlandiya va Singapur kabi davlatlarning tajribalari har tomonlama tahlil etilmoqda.

Mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarining shakllanganligi bo'yicha Germaniya davlatida oliy ta'lim muassasalarining kadrlar tayyorlashida mustaqil ta'limning ulushi, ularning ushbu ko'nikmalarni shakllanishida katta ta'sir ko'rsatmoqda. Oliy ta'lim muassasalari talabalarining mustaqil ta'lim olish jarayonida axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish, ularni sifatli ta'lim olish imkoniyatlari bilan ta'minlaydi.

Mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda axborot manbasini aniqlash va izlab topish, zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida axborot va bilimlarni almashish imkoniyatlarini yaratadi. Talabalar fanlardan o'z bilimlarini chuqurlashtirish uchun qo'shimcha ma'lumotlarni tarmoqdan qidirish, elektron kutubxonadagi manbalardan foydalanish, masofaviy ta'lim olish, hisobotlar tayyorlash va uzatish kabi faoliyatlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega.

Shuningdek, elektron platformalar orqali mustaqil ta'lim olish natijasida ota-onalar farzandlarining o'zlashtirishi va davomatini kuzatib borishlarini ta'minlaydi. Axborot manbai orqali ma'lumotlarni tahlil qilish, xulosa chiqarish va qaror qabul qilish kabi ko'nikmalar ham shakllanishiga zamin yaratiladi.

Davlat tomonidan mustaqil ta'limni tashkil etish bo'yicha qabul qilinayotgan qonunlar, qarorlar va dasturlar ta'lim sifatini oshirishga, talabalarning o'z mutaxassisliklari bo'yicha yetuk kadr bo'lib yetishishiga, milliy va xalqaro mehnat bozorida raqobatga tayyor ekanligiga qaratilgan. Talabalarning mustaqil ta'lim olishida ma'lumotlar, yangiliklar, biznes, aholiga xizmat ko'rsatish, davlat haqida ma'lumotlar, telefon raqamlarikabi interaktiv davlat xizmatlari mavjud va talabalarning axborot texnologiyalaridan foydalanishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Davlat tomonidan oliy ta'lim muassasalari uchun interaktiv portal taqdim etilgan va barcha sohalarni onlayn orqali olis joylarda masofadan o'rganish taklif etilgan. Axborot texnologiyalaridan foydalanishni yo'lga qo'yilishi bo'yicha BMT reytingida davlatlar 4 guruhga bo'lib tahlil qilinganda, ya'ni eng yuqori, yuqori, o'rta va past bo'yicha Germaniya davlati bu ko'rsatkich bo'yicha yuqori guruh mamlakatlari qatorida joylashgan. Hukumat tomonidan aholini mustaqil ta'lim olishga shart sharoit bilan ta'minlashga e'tibor qaratilmoqda.

Germaniya davlati tajribasini tahlil qilish natijasida mamlakatimizda ham bu kabi bir nechta loyihalar, chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, xususan mustaqil ta'lim ko'nikmasini shakllantirish bo'yicha fan dasturlari va sillabuslarida mustqail ta'limning ulushi 50–60% ekanligi va bu borada professor-o'qituvchilar tomonidan fanlarning xususiyatidan kelib chiqib mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqayotganligi, talabalarining mustqail ta'lim mavzularini o'zlashtirishi hamda topshiriqlarni bajarishda interfaol metodlarga tayangan holda variativlikdan foydalangan holda talabalar tomonidan topshiriqlarni bajarilishiga ahamiyat qaratilgan. Bu albatta talabalarda axborot banbaini toppish, o'rganish, ma'lumotlarni tahlil qilish hamda xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllanishida ham kata hissa qo'shadi.

Mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim MOODLE platformasida, "MOODLE (Modular Object-Oriented Dynamic Learning Environment) – bu onlayn ta'lim platformasidir", u mustaqil ta'lim jarayonlarini tashkil qilish va boshqarish uchun xizmat qilib, foydalanuvchilar o'z kurslarini yaratishi, talabalar bilan muloqot qilishi, resurslar va materiallar joylashtirishi mumkin, samarali va qulay tashkil qilish imkonini beradi. O'qituvchilar, o'quvchilar va talabalar ushbu platformadan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lib, bu platformaga topshiriqlarni joylashtirish va muddat belgilash, tahrir qilish, guruhlash, tekshirish hamda ularni baholash imkoniyatini beradi. Dunyoda mustaqil ta'limni masofaviy ta'lim shaklida tashkil etish rivojlanib bormoqda. Bu esa talaba va o'qituvchi o'rtasida elektron onlayn muloqotni o'rnatish, o'qituvchilarga o'quv materiallarni joylashtirish, talabalarga shu ma'lumotlar bilan ishlashga hamda boshqa masofaviy ta'lim xizmatlaridan foydalanishga imkoniyat yaratadi.

XULOSALAR

Demak, talabalarining mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish ularda fanni o'rganishga bo'lgan maqsad, reja va harakatning uyg'unligini talab etib, o'qituvchilar tomonidan ushbu uyg'unlik natijasini rag'batlantirish bilan yakunlanadi. Bu natijaga erishish uchun talabaning mustaqil fikr yuritishi, qaror qabul qilishi, zarur va foydali axborot manbasini qidirib topish va undan to'g'ri foydalanish, tahlil qilish hamda xulosa chiqarish ko'nikmalarini tizimli ravishda yo'lga qo'yish orqali mustaqil ta'limdan ko'zlangan maqsadga erishadi. Albatta, bu natijani qo'lga kiritishida undagi axborot texnologiyalari borasidagi bilimi ham kata o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Иванова О.Ф. Английский язык. Пособие для самостоятельной работы студентов (B1-C1): учебное пособие для вузов. – Москва: Юрайт, 2018. – 352 с. Электронный ресурс: <https://urait.ru/bcode/427359>. Дата обращения: 05.12.2021.;
2. Иванова О.Ф., Шиловская М.М. Английский язык. Пособие для самостоятельной работы студентов (B1-C1). Учебное пособие для вузов. – М.: Юрайт, 2018.;
3. Самостоятельная работа студентов: виды, формы, критерии оценки: учеб.-метод. Пособие. / А.В.Меренков, С.В.Куныщиков, Т.И.Гречухина, А.В.Усачева, И.Ю.Вороткова;
4. Громова Д.А., Ребикова Л.Д. Самостоятельная работа студентов при изучении английского языка и методы ее оценки: создание языкового портфолио студентов // Культура и деловой иностранный язык. Том 202. – С. 189-194.;
5. Жалолов Ж. Чет тил ўқитиш методикаси. – Тошкент, 2012. – Б. 430.;

6. Нишонова З. Мустақил фикр ривожланганлигининг психологик мезонлари // Халқ таълими. – Тошкент, 2001. – № 1. – Б. 38-40.;
7. Толипова Ж. Талабаларнинг мустақил таълимини ташкил этиш // Халқ таълими. – Тошкент, 2002. – № 4. – Б. 102-103.;
8. Толипов Ў.Қ. Талабалар мустақил ишларида ўқитиш воситалари // Халқ таълими. – Тошкент, 2000. – № 1. – Б. 45-47.;
9. Халилов Н. Мустақил таълим шакллари // Халқ таълими. – Тошкент, 2002. – № 5. – Б. 88-89.
10. Kholikov, B. A. (2015). Poetic outcome of vital problems. In The Fifth European Conference on Languages, Literature and Linguistics (pp. 82-89).